

Modern education and development
SAMARQAND – QADIMIY VA HAMISHA NAVQIRON
SHAHAR

Abduhamidov Doniyorek Yodgorxoja o‘g‘li,

Namangan davlat universiteti, Tarix yonalishi talabasi

Tel +998941157045

E-mail: doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizning qadimiy va navqiron shaharlaridan bo‘lgan Samarqand shahrining tarixi va uning qadimiy arxitektura yodgorliklari to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand, Registon maydoni, Go‘ri amir maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Shohi zinda maqbaralar majmui, Ulug‘bek rasadxonasi.*

Yurtimizning qadimiy va hamisha navqiron shahri Samarqand ta‘rifiga til o‘jiz. Azim shahar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish uchun bu yerga, albatta, tashrif buyurish lozim. Bejizga bu ko‘hna kent borib ko‘rish shart bo‘lgan dunyodagi 50 ta shahardan biri sifatida e‘tirof etilgani yo‘q.

Tarixiy yozma manbalarda Samarqand yoshi qadimiyligi haqida ma‘lumotlar yetarli darajada mavjud. Muhammad an-Nasafiyning “al-Qand fiy zikri ulamoi”, Haydar as-Samarqandiyning (XII asr) “Qandiyai Xurd”, Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning “Samariya”, Xitoy tarixchisi Chjan Syan, Yunon va Rimlik tarixchilar Arrian, Kursiy Ruf va boshqa ko‘plab mualliflarning asarlarida yurtimizning bir qator shaharlari kabi Samarqand haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan.

Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib “Boqiy shaharlar” nomini olgan. Xalq iborasi “Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast” – “Samarqand yer yuzining sayqali (jilosi)” deb behuda aytilmagan. O‘z navbatida bobomiz Amir Temur hukmronlik davrida Samarqandni mehr bilan qadrladi, obod qildi, dunyoning sayqaliga aylantirdi.

“Samarqand” so‘zining kelib chiqishi haqida bir qator ma’lumotlar, farazlar mavjud. Sharq mualliflari “Samarqand” so‘zining 1-qismi, ya’ni “Samar” so‘zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun’iy ta’riflarni taklif etganlar, ammo tarixda bunday ismli kishi haqida ma’lumotlar aniqlanmagan. So‘zning 2-qismi “kent” (kand) – qishloq, shahar degan ma’noni bildiradi. Ba’zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha “Samarya”ra yaqin, ya’ni “yig‘ilish, yig‘in” so‘zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokanda deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo‘lib, Marokanda – Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir.

XI asr olimlaridan Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg‘ariy shahar nomining kelib chiqishini “Semizkent”, ya’ni “semiz qishloq” so‘zining buzib talaffuz qilinishi deb tushuntiradilar [2]. 1404-yilda Samarqandga tashrif buyurgan ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo ham bu talqinni qo‘llab quvvatlaydi.

Bulardan tashqari, turli davrlarda bitilgan tarixiy manba va kitoblarda shahar nomi Samariana, Saramanka, Sakanna, Sanmangan, Samakiyon, Sumron, Shamarkan, Samaroy, Simroyat kabi shakllarda ham qayd etilgan.

Arxeologik qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, yuqori paleolit davrida ham Samarqand hududida odamlar yashagan. Samarqand jahonning eng qadimgi shaharlaridan biri – 2700 yildan ortiq tarixga ega. Samarqand miloddan avval IV asrdan – milodiy VI asrgacha Sug‘d davlatining poytaxti bo‘lgan. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning (miloddan avvalgi I asr oxiri – milodiy I asr) yozishicha, Samarqand qal’asi devorining aylanasi taxminan 10,5 km bo‘lgan. Miloddan avval 329-yil Aleksandr Makedonskiy qo‘shinlari Samarqandni vayron qilgan. Yunon-makedonlarga qarshi ozodlik kurashiga boshchilik qilgan Spitamen Samarqandni yunonlardan ozod etishga harakat etgan, ammo xiyonatkor ko‘chmanchi qabilalar sardorlari tomonidan o‘ldirilgan va boshi Aleksandr Makedonskiyga sulh sifatida yuborilgan. Samarqand VI asrda Turk xokonligi

Modern education and development

tarkibiga kirgan va mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan. Bu davrda Samarqand Hindiston, Eron, Misr va Vizantiya davlatlari bilan faol savdo qilgan.

O‘z davrida Samarqand Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshihlar davlatining yirik markazlaridan bo‘lgan.

1220-yil Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Samarqandga bostirib kirib, shaharga o‘t qo‘ygan va aholining katta qismini qirib tashlagan, omon qolgan ahali shaharni tark etgan. Oradan bir necha yil o‘tibgina Samarqand qayta tiklana boshlagan. Bu davrda Samarqand Chig‘atoy ulusi tarkibida bo‘lgan. XIII asr ikkinchi yarmida Samarqandga kelgan venetsiyalik sayyoh Marko Polo “Sonmarkon kapa va mashhur shahar” deb shaharga ta’rif bergan.

XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrda mo‘g‘ullarga qarshi xalq harakatlari bo‘lib o‘tdi. Sarbadorlar isyoni natijasida, shaharda bir necha oy xalq hokimiyati o‘rnatilgan. XIV asr oxiri – XV asrda Samarqand iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayoti ancha yuksalgan. Amir Temur saltanati poytaxti sifatida Samarqand jahonga mashhur bo‘lgan.

Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida ayniqsa gullab yashnadi. Shaharda Isfaxon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Keshning me’mor va binokorlari qo‘li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog‘-rog‘lar va bo‘stonlar barpo etiladi. Xususan, Shohi Zinda me’moriy majmuasiga mansub Shodimulk og‘o maqbarasi, Shirinbeka og‘o maqbarasi va boshqa quriladi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir Temurning qarorgohi Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroylar qad ko‘taradi. Umuman olganda Samarqand Amir Temur davrida o‘zining qadimiy o‘rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangitdan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal’a devori bilan o‘ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So‘zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o‘rnatildi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o‘nlab sug‘orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur

Modern education and development

shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go‘zalligi hamda tevarakatofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi. Yirik sharqshunos olim V. V. Bartold ta’kidlaganidek, Amir Temurning fikriga ko‘ra, Samarqand jahonning birinchi shahri bo‘lishi kerak edi.

Amir Temur vafoti (1405) dan so‘ng Samarqand taxtini Ulug‘bek egalladi. Ulug‘bek davrida Samarqandda bunyodkorlik ishlari faol davom etdi. Qo‘shni davlatlar bilan aloqalar kuchaydi. U O‘rta Osiyo xalqiari ilm-fani va madaniyatini o‘rta asr sharoitida dunyo fanining muayyan pog‘onasiga olib chiqdi. Mirzo Ulug‘bekning amalga oshirgan eng katta ishi – Samarqand ilmiy maktabini o‘sha davr akademiyasini barpo etganligi bo‘ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng kattalari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy edi. U.ning ilmiy maktabi o‘z faoliyatida o‘rta osiyolik mashhur olimlar Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abul Abbos al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Xolid al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylir boshlab bergan ilmiy an’anaga asoslanar edi. Ulug‘bek Samarqand yaqinida rasadxona barpo qildi.

Yuqorida qayd etilgnidek, Samarqand shahri qadimiy va o‘zining go‘zalligini Rimga qiyoslab kelingan. Ayniqsa, shaharni Amir Temur va Temuriylar davrida mavqeyi juda oshgan. Yirik savdo, ilm-fan, madaniyat markaziga aylangan. Xonliklar davriga kelib esa ahamiyat bir oz kamaygani bois qarovsiz holga kelib qolgan. Ma’lum bir davrda zilzilalar sodir bo‘lgani bois obidalarga zarar yetgan. Sobiq Ittifoq davrida Samqandning ko‘plab qimmatbaho asori-atiqalari markazga olib ketilgan va arxitektura yodgorliklarini buzish uchun harakatlar bo‘lgan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, Samarqandga e’tibor yanada kuchaygan. Qadimiy arxitektura yodgorliklarida rekonstruksiya, ta’mirlash ishlari olib borildi. Samarqand shahrida ikki yilda bir bo‘lib o‘tadigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivaliga kelgan mehmonlar ko‘z o‘ngida Samarqand chiroy ochib turibdi, zero, Sohibqiron Amir Temur aytganidek, “Kim

bizning qudratimizni ko‘rmoqchi bo‘lsa, biz qurgan minoralarga boqsin” degan chaqiriqni hech qachon unitib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000-yil
2. Abu Tohirxo‘ja Samarqandiy. Samariya. – Toshkent, 1969.
3. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
4. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – 555 б.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O'. Vatan tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. – №1. – 359 b.